



## NUTQ MADANIYATI VA DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING JAMIYATDAGI O'RNI

*Mengboyeva Baxtiniso Mamatqobilovna*

*Qayumova Robiya Nizom qizi*

*Jo'rayeva Sevinch Dilmurod qizi*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabalari*

*Email:mengboyevabaxtiniso2@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritishning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yoritilib beriladi. Unda nutq madaniyatining insonlar orasidagi samarali muloqotni ta'minlashdagi roli, shuningdek, davlat tilida ish yuritishda hujjatlar bilan ishlash jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu maqolada rasmiy uslub talablari, til me'yorlariga rioya qilish, aniq va ravon fikrlarni bayon etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, nutq madaniyati va ish yuritish ko'nikmalarining jamiyat taraqqiyoti hamda boshqaruv samaradorligidagi ta'sirini ochib berishga harakat qiladi.

**Abstract:** This article highlights the role and importance of speech culture and business in the state language in society. It analyzes the role of speech culture in ensuring effective communication between people, as well as its importance in the process of working with documents in the state language. This article pays special attention to the requirements of formal style, compliance with language standards, and the ability to express thoughts clearly and fluently. It also attempts to reveal the impact of speech culture and business skills on the development of society and the effectiveness of management.

**Аннотация:** В данной статье освещается роль и значение речевой культуры и деловой коммуникации на государственном языке в обществе. Анализируется роль речевой культуры в обеспечении эффективной коммуникации между людьми, а также ее важность в процессе работы с



документами на государственном языке. Особое внимание уделяется требованиям формального стиля, соблюдению языковых норм и способности четко и бегло выражать мысли. Также предпринимается попытка выявить влияние речевой культуры и деловых навыков на развитие общества и эффективность управления.

**Kalit so'zlar:** *Nutq madaniyati, jamiyatdagi o'rni, hujjatlar, rasmiy uslub, fikr, aniq, ko'nikmalar, harakat*

**Keywords:** *Speech culture, role in society, documents, official style, thought, specific, skills, action*

**Ключевые слова:** *культура речи, роль в обществе, документы, официальный стиль, мышление, конкретные навыки, действие*

Asosiy qism: Nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, insonlar o'rtasidagi muloqot samaradorligini belgilaydi. Har bir inson o'z fikrini aniq, ravon va adabiy til me'yorlariga mos holda ifoda eta olsa, jamiyatda o'zaro tushunish, hurmat va hamkorlik mustahkamlanadi. Nutq madaniyati nafaqat shaxsning bilim va saviyasini, balki uning umumiy madaniy darajasini ham ko'rsatadi. Shu sababli u har bir kasb egasi uchun muhim ko'nikma hisoblanadi. Jamiyatda turli ijtimoiy munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jarayonlar asosan, nutq orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va huquqiy sohalarda nutq madaniyatiga rioya qilish katta ahamiyatga ega. To'g'ri tashkil etilgan nutq orqali qonunlar, qarorlar va muhim ma'lumotlar aholiga tushunarli yetkaziladi. Nutq madaniyati yosh avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchi va otalarning nutqi bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Adabiy tilga asoslangan nutq orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy meros avloddan-avlodga yetkaziladi. Bu esa jamiyatning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, nutq madaniyati insonning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatida ham muhim rol o'ynaydi. Chiroyli, mantiqli va ta'sirchan nutq so'zlovchining obro'sini oshiradi, uning boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga yordam beradi. Ayniqsa, rahbarlar, pedagoglar, jurnalistlar va huquqshunoslar uchun nutq madaniyati asosiy vosita



hisoblanadi. Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o'lchovlariga mos tarzda ish yuritish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay bilish kabi talablari, barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o'quv dasturi asosida akademik litsey talabalari uchun ilk marotaba «Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish» darsligi yaratildi. Darslikning asosiy qismi va ilovasida berilgan ta'limiy o'quv materiallari mazmuni o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishga, yozma nutqini rasmiy-idoraviy uslub me'yorlari asosida to'g'ri shakllantirishga, hujjatchilik — munshaot ishini puxta egallashlariga qaratilgan. Ushbu maqsadda adabiy til me'yorlari, matn qurilishi, hujjat turlari va ularning tarkibiy qismlari, to'g'ri hujjatlashtirish yo'llari kabi masalalar yuzasidan ixcham va tushunarli tilda zarur nazariy ma'lumotlar berilgan. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan «Til va nutq», «Yozma nutq savodxonligi», «Adabiy til me'yorlari», «Nutqning uslubiy shakllari», «Matn turlari va tarkibi», «Hujjat turlari va ish yuritish asoslari» qismlari darslikda yagona uslubiyotga bo'y-sundirilgan tarzda talabalarning ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Talabalarning davlat tilida ish yuritish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan. Yani bu fanning yaratilishi jamiyatga katta ta'sir qiladi. Nutq madaniyatini rivojlantiradi.

### 1. Barkamol mutaxassis qiyofasini shakllantirishga.

Zamonaviy mutaxassis nafaqat o'z sohasining texnik jihatlarini bilishi, balki o'z fikrini jahon o'lchovlariga mos tarzda davlat tilida ifodalay olishi kerak. Bu talab mutaxassisning jamiyatdagi nufuzi va malaka darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

### 2. Davlat tilining ijtimoiy nufuzini oshirishga.

Ish yuritishning davlat tilida, ya'ni o'zbek tili me'yorlari asosida olib borilishi tilimizning barcha sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, madaniyat) to'laonli amal qilishini ta'minlaydi. Kitobda keltirilgan «adabiy til me'yorlari» va «nutqning uslubiy shakllari»ni o'zlashtirish jamiyatda muloqot madaniyatini yuksaltiradi.

### 3. Hujjatchilik — Munshaot san'atining ahamiyati



Ish yuritish (munshaot) — bu nafaqat qog‘oz to‘ldirish, balki tashkilotlar o‘rtasidagi aloqa vositasidir.

Nutqiy savodxonlik: Xato va kamchiliklarsiz yozilgan hujjat muassasaning imidjini ko‘rsatadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati insonning ma‘naviy saviyasi, tafakkuri va tarbiyasini namoyon etuvchi muhim omildir. To‘g‘ri, ravon va adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda so‘zlash jamiyatda o‘zaro hurmat va tushunishni mustahkamlaydi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan shaxs fikrini aniq yetkazadi, boshqalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishadi. Shu bois har bir inson nutqini rivojlantirishga e‘tibor qaratishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O‘qituvchi nutq madaniyati" o‘quv qo‘llanma Islikov Sayid va Nuraliyeva Nargiza
2. "Davlat tilida ish yuritish" darsligi To‘ra Mirzayev va Nizomiddin Mahmudov.